

**O`ZBEKISTON ALOKA VA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO`MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKIS FILIALI**

Informatika va axborot texnologiyalari
kafedrası

Axborot texnologiyalari fakul`teti «Informatika va axborot texnologiyalari»
yunalishi bo`yicha
4-kurs talabasi Aytimov Ruslanning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: MathCad tizimida transport masalasini Venger usuli yordamida
yechish.

Ilimiy raxbar:_____prof: Uteuliev N.U

Kafedra mudiri:_____t.f.k. Arzimbetov T.Z

NUKUS – 2014 y.

MUNDARIJA

Kirish	3
§1. Transport masalasi va uning matematik modeli.....	5
1.1. Ba`zi transport masalalarining matematik modellari.....	7
§2. Transport masalasining dastlabki rejasini topish usullari.	10
2.1. «Shimoliy-g`arbiy burchak» usuli.	10
2.2. Eng kam xarajatlar usuli.	12
§3. Transport masalasini yechishning potentsiallar usuli.	14
3.1. Ba`zi transport masalalarni potentsiallar usuli bilan yechish.	15
§4. Transport masalasini yechishning Venger usuli.	20
4.1. Tanlash masalasi uchun Venger usuli.	20
4.2. Venger usuli algoritmini ta`riflash.	21
4.3. Venger usulini transport masalasini yechish uchun qo`llanish.	25
4.4. Venger usulini asoslash.....	28
4.5. Venger usulining algoritmini ta`riflash.....	34
§5. MathCAD tizimi yordamida transport masalasini yechish.	44
5.1. Mathcad tizimi haqida.....	44
XULOSA	48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49

Kirish

Hozirgi kunda chiziqli dasturlashning transport masalasi har xil iqtisodiy masalalarni nazariy jihatdan asoslash va rejalashtirish amaliyotida keng qo'llanilib kelmoqta. U ko'pincha sanoat va qishloq xo'jaligining eng ahamiyatli rejalashtirish amaliyotida kengdan qo'llaniladi, u ko'pincha sanoat va qishloq xo'jaligining eng ahamiyatli mahsulotlarini etkazib berishda, shuning bilan birga yuk tashishning va transportning har xil turlarining ishlarini optimal rejalashtirishda judayam alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Transport masalasi chiziqli dasturlashtirish masalasi bo'lganligidan, uni simpleks usuli bilan yechishga bo'ladi. Biroq, simpleks usulini transport masalasini yechishga bevosita qo'llanish maqsadga muvofiq kelmaydi. Sababi, bu usul chiziqli dasturlashtirishning xoxlagan masalasini yechishning har tomonlama (universal) usuli bo'lib topiladi lekin u transport masalasining chegaraviy shartlarining o'zgachiliklarini hisobga olmaydi. Shuning uchun transport masalasini yechishga simpleks usulini qo'llanish katta hajmdagi hisoblash ishlarini bajarishni talab etadi.

Transport masalasining chegaraviy shartlarining koeffitsientlaridan tuzilgan $A = (a_{ij}) \ (i = \overline{1, m}; \ j = \overline{1, n})$ matritsasining elementlari 0 va 1 raqamlaridan iborat bo'lib, uning har bir ustunidagi faqat ikki element noldan farqli, va qolgan elementlari nolga teng bo'ladi. Bu masalaning chegaraviy tizimining matritsasining ko'rsatilgan xossasi hisobga olinib, uni yechishning, simpleks usuli bilan solishtirganda ancha oddiy va qo'llanish uchun qo'layli, maxsus usullari ishlanib chiqilgan. Ular, simpleks usuli kabi, dastlab masalaning boshlang'ich tayanich yechimini, va so'ngidan uni yaxshilab o'tirib, optimal yechimini topishga mumkinchilik beradi. Bunday usullarga transport masalasini yechishning potentsiallar va Venger usullarini aytib o'tishga bo'ladi.

Xozirgi davrda chiziqli dasturlashning maxsus bo'limi bo'lgan transport masalalarini yechishning sonli usullarini ishlab chiqish va etishtirish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Bu yo`nalishni rivojlantirishda olamga belgili olimlardan e.G.Golishteyn, G.Vagner, Yu.M.ermolev, I.N.Lyashenko, Yu.P.Zaychenko, Yu.D.Popovlarning ilmiy mehnatlarini aytib o`tish o`rinli bo`ladi.

Transport masalasi birinchi marta 1939-yil rus olimi A.N.Tolstoy va 1941-yili amerikalik olim F.Xichko tamonidan qo`yilgan.

Bu transport masalasini yechish algoritmlarini tadbiq etish [1,2,3,4,5,6,9] mexnatlarida aks etilgan.

Bu bitiruv malakaviy ishida MathCad tizimida transport masalasini Venger usuli yordamida yechish masalasi qaraladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 5 paragraf, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida qo`yilgan masalaning ahamiyati va uning tarkibi ko`rib chiqiladi.

Ishning 1- paragrafida Transport masalasi va uning matematik modeli ko`rib chiqilgan.

Ishning 2-paragrafida Transport masalasining dastlabki yechimini topish usullari qarab o`tilgan.

Ishning 3-paragrifida Transport masalasini yechishning potentsiallar usuli qaralgan.

Ishning 4–paragrifida transport masalasini yechishning Venger usuli ko`rib o`tilgan.

Ishning 5–paragrifida MathCAD tizimi yordamida transport masalasini yechish ko`rib o`tilgan.

Xulosa bo`limida bitiruv malakaviy ishida olingan natijalari ko`rsatilgan.

§1. Transport masalasi va uning matematik modeli.

Faraz qilaylik $A_1, A_2, \dots, A_m$ (omborlarda mos ravishda $a_1, a_2, \dots, a_m$ tonna bir xil mahsulotlar bo'lsin. Bu omborlardan $V_1, V_2, \dots, V_n$ do'konlarga $b_1, b_2, \dots, b_n$ tonna mahsulotlarni olib borish kerak. Bulardan tashqari i - ombordan ($i = \overline{1, m}$) j - do'konga ($j = \overline{1, n}$) bir tonna mahsulot olib borish bahosi c_{ij} ma'lum bo'lsin.

Mahsulotlarni do'konlarga olib borishning shunday rejasini tuzish kerakki, natijada yuk tashuvchi mashinalarga eng kam harajat qilinsin.

Ombordagi mollar do'konlarning talabini to'liq qanoatlantirsin, ya'ni

$$a_1 + a_2 + \dots + a_m = b_1 + b_2 + \dots + b_n \quad (1.1)$$

Agar (1.1) tenglik o'rinli bo'lsa, ya'ni ombordagi zaxira mollari bilan ehtiyojlar bir xil bo'lsa, bu holda qo'yilgan masala yopiq modeli transport masalasi (yoki yopiq transport masalasi) deyiladi. Agar ombordagi mollar ko'p, ehtiyoj esa kam yoki teskarisi bo'lsa, bu holda ochiq modeli transport masalasi (yoki ochiq transport masalasi) deyiladi. Ochiq modeli transport masalasi quyidagicha yopiq modeli transport masalasiga keltiriladi.

Agar $\sum_{i=1}^m a_i > \sum_{j=1}^n b_j$ bo'lsa, ya'ni omborlardagi zaxira mollar (ta'minlovchilar) soni ko'p, do'konlar (ehitiyoj ya'ni iste'molchilar) soni kam bo'lsa, biror soxta V_{n+1} do'kon (iste'molchi) kiritib, unga boradigan mahsulotni

$b_{n+1} = \sum_{i=1}^m a_i - \sum_{j=1}^n b_j$ deb belgilab, narxni esa $c_{in+1} = 0$ deb olish kerak. Agar

$a_1 + \dots + a_m < b_1 + \dots + b_n$ bo'lsa, ya'ni do'konlar (ehitiyoj, ya'ni iste'molchilar) soni ko'p bo'lib, ombordagi zaxira mollar (ta'minlovchilar) soni kam bo'lsa, bu holda ham biror soxta A_{m+1} ombor (ta'minlovchi) kiritib, undagi mahsulot miqdorini

$a_{m+1} = \sum_{j=1}^n b_j - \sum_{i=1}^m a_i$ tonna orqali belgilab, $c_{m+1j} = 0$ deb olish kifoyadir.

Teorema 1.1. Har qanday transport masalasining yechimga ega bo'lishi uchun undagi zaxira mahsulotlari miqdori bilan iste'molchilar talabi (ehitiyojlar) o'zaro teng bo'lishi zarur va kifoya.

i -ombordan j -do'konga tushiriladigan mahsulot miqdorini x_{ij} tonna deb belgilab, masala shartlarining hammasini quyidagi jadvalga kiritaylik.

Omborlar	mahsulotlar	do'konlar				
		V_1	V_2	V_3	...	V_n
A_1	a_1	c_{11} x_{11}	c_{12} x_{12}	c_{13} x_{13}	...	c_{1n} x_{1n}
A_2	a_2	c_{21} x_{21}	c_{22} x_{22}	c_{23} x_{23}	...	c_{2n} x_{2n}
$\vdots$	$\vdots$	...	...	...	...	...

A_m	a_m	c_{m1} X_{m1}	c_{m2} X_{m2}	c_{m3} X_{m3}	...	c_{mn} X_{mn}
ehtiyojlar		b_1	b_2	b_3	...	b_n

Masalan, x_{23} deganimiz 2-ombordan 3-do`konga tushirilgan mahsulotning miqdori tonnada,  $c_{23}$  esa shu tushirilgan mahsulotning narxi. Bu holda maqsad funktsiyamiz, ya`ni barcha mahsulotlarni do`konlarga olib borish uchun ketgan xarajatni ifodalovchi funktsiyamiz:

$$f = c_{11}x_{11} + c_{12}x_{12} + \dots + c_{1n}x_{1n} + c_{21}x_{21} + \dots + c_{2n}x_{2n} + \dots + c_{m1}x_{m1} + \dots + c_{mn}x_{mn} \quad (1.2)$$

ko`rinishda bo`ladi. Agar hamma mahsulotlarning do`konlarga to`liq etkazib berilganligini va do`konlarning ehtiyojlari qanoatlantirilganligini e`tiborga olsak, quyidagi tenglamalar sistemasi kelib chiqadi.

$$\left\{ \begin{array}{l} x_{11} + x_{12} + \dots + x_{1n} = a_1 \\ x_{21} + x_{22} + \dots + x_{2n} = a_2 \\ \hline x_{m1} + x_{m2} + \dots + x_{mn} = a_m \\ x_{11} + x_{21} + \dots + x_{m1} = b_1 \\ x_{12} + x_{22} + \dots + x_{m2} = b_2 \\ \hline x_{1n} + x_{2n} + \dots + x_{mn} = b_n \\ x_{ij} \geq 0; \quad i = \overline{1, m}; \quad j = \overline{1, n} \end{array} \right. \quad (1.3)$$

$x_{ij} \geq 0$ bo`lishi ravshan, chunki, agar  $x_{ij} = 0$  bo`lsa, do`konlarga hech qanday mahsulot etkazilmagan bo`lar edi.

Shunday qilib, qo`yilgan masalaning matematik modeli quyidagicha bo`ladi:

(1.3) da $m+n$ ta chiziqli tenglamalar sistemasining shunday manfiy bo`lmagan o`rinli yechimlarini topaylikki, natijada (1.2) maqsad funktsiya eng kichik (minimum) qiymatga erishsin.

(1.2) va (1.3) munosabatlarni quyidagicha qulayroq ko`rinishda ham yozish mumkin.

$$f = \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij} \quad (1.4)$$

$$\left. \begin{array}{l} \sum_{j=1}^n x_{ij} = a_i (i = \overline{1, m}) \\ \sum_{i=1}^m x_{ij} = b_j (j = \overline{1, n}) \end{array} \right\} \quad (1.5)$$

1.1. Baʼzi transport masalalarining matematik modellari.

1.1.1.-masala. (Guruch masalasi). Faraz qilaylik shahardagi ikkita A_1 , A_2 omborlardan uchta V_1 , V_2 , V_3 doʻkonlarga bir xil mahsulot olib borish kerak.

A_1 omborda 40 tonna, A_2 omborda 30 tonna guruch boʻlib, V_1 doʻkonga 20 tonna, V_2 doʻkonga 35 tonna, V_3 doʻkonga esa 15 tonna guruch joʻnatish kerak boʻlsin. A_1 ombordan 1 tonna guruchni V_1 , V_2 , V_3 doʻkonlarga etkazib berish uchun ketadigan transport xarajati mos ravishda 5, 6, 8 soʻm, A_2 ombordan esa mos ravishda 7, 3, 11 soʻm boʻlsin.

A_1 ombordan V_1 , V_2 , V_3 doʻkonlarga tushiriladigan guruch miqdorini mos ravishda x_{11} tonna, x_{12} tonna va x_{13} tonna, A_2 ombordan keltiriladigan guruch miqdorini esa mos ravishda x_{21} tonna, x_{22} tonna va x_{23} tonna deylik. Bu guruchni doʻkonlarga etkazishning shunday rejasini tuzaylikki, natijada sarf qilinadigan transport xarajatlari eng kam boʻlsin. Masalaning hamma shartlarini quyidagi jadvalda keltiraylik:

Omborlar	Maxsulot miqdori (tonna)	Doʻkonlar		
		V_1	V_2	V_3
A_1	40	5 x_{11}	6 x_{12}	8 x_{13}
A_2	30	7 x_{21}	3 x_{22}	11 x_{23}
ehtiyotlar		20	35	15

Bu holda guruchlarni doʻkonlarga olib borish uchun sarflanadigan transport xarajati quyidagi funktsiya orqali aniqlanadi.

$$f = 5x_{11} + 6x_{12} + 8x_{13} + 7x_{21} + 3x_{22} + 11x_{23} \quad (1.1.1)$$

Masalalarning shartidan yaʼni jadvaldan koʻrinadiki, x_{11} , x_{12} , x_{13} , x_{21} , x_{22} , x_{23} miqdorlar orasida quyidagicha bogʻlanish boʻlishi ravshan:

$$\left. \begin{aligned} x_{11} + x_{12} + x_{13} &= 40 \\ x_{21} + x_{22} + x_{23} &= 30 \\ x_{11} + x_{21} &= 20 \\ x_{12} + x_{22} &= 35 \\ x_{13} + x_{23} &= 15 \end{aligned} \right\} \quad (1.1.2)$$

x_{ij} ($i, j = 1, 3$) larning hammasi bir paytda nol boʻlishi mumkin emas, aks holda bironta doʻkonga ham guruch olib borilmagan boʻlar edi. Shuning uchun $x_{ij} \geq 0$ deb olamiz.

Qo'yilgan masalaning matematik modeli quyidagicha: (1.1.2) algebraik tenglamalar sistemasining shunday manfiy bo'lmagan $x_{11} = x_{11}^0$, $x_{12} = x_{12}^0, \dots, x_{23} = x_{23}^0$ yechimlarini topaylikki, natijada (1.1.1) maqsad funktsiya eng kichik qiymatga ega bo'lsin. Bu esa transportlar uchun ketgan xarajat eng kam bo'lishini ta'minlaydi. Bu masalaning yechimlarini keyinchalik shimoliy-g'arbiy burchak usuli va eng kam xarajatlar usuli bilan hosil qilamiz.

1.1.2-masala. (Shakar masalasi). Faraz qilaylik shahardagi uchta A_1, A_2, A_3 omborlardan uchta V_1, V_2, V_3 do'konlarga shakar olib borish kerak bo'lsin.

A_1 omborda 80 tonna, A_2 omborda 25 tonna, A_3 omborda esa 35 tonna shakar bo'lib, V_1 do'konga 30 tonna, V_2 do'konga 10 tonna, V_3 do'konga esa 90 tonna shakar jo'natish kerak bo'lsin.

A_1 ombordan 1 tonna shakarni V_1, V_2, V_3 do'konlarga etkazib berish uchun ketadigan transport xarajati mos ravishda 4, 3, 4 so'm, A_2 ombordan esa mos ravishda 5, 1, 2 so'm, A_3 ombordan esa mos ravishda 3, 4, 7 so'm bo'lsin.

Omborlarda shakarlar ko'p, ehtiyoj esa kam bo'lgani uchun, qo'yilgan masala ochiq transport masalasi bo'ladi. Shuning uchun soxta V_4 do'kon kiritib, unga jo'natiladigan shakar miqdorini 10 tonna deb, qo'yiladigan narxni esa 0 so'm deb hisoblaylik. Bu holda ochiq transport masalamiz yopiq transport masalasiga keladi.

A_1 ombordan V_1, V_2, V_3, V_4 do'konlarga tushiriladigan shakar miqdorini mos ravishda $x_{11}, x_{12}, x_{13}, x_{14}$ tonna; A_2 ombordan keltiriladigan shakar miqdorini esa, mos ravishda $x_{21}, x_{22}, x_{23}, x_{24}$ tonna; A_3 ombordan keltiriladigan shakar miqdorini esa mos ravishda $x_{31}, x_{32}, x_{33}, x_{34}$ tonna deylik. Bu shakarlarni do'konlarga shunday etkazaylikki, natijada sarf qilinadigan transport xarajatlari eng kam bo'lsin. Masalaning hamma shartlarini quyidagi jadvalda keltiraylik:

$\begin{matrix} b_j \\ a_i \end{matrix}$	30	10	90	10
80	4 x_{11}	3 x_{12}	4 x_{13}	0 x_{14}
25	5 x_{21}	1 x_{22}	2 x_{23}	0 x_{24}
35	3 x_{31}	4 x_{32}	7 x_{33}	0 x_{34}

Bu holda shakarlarni do'konlarga olib borish uchun ketgan transport xarajati quyidagi maqsad funktsiya orqali aniqlanadi:

$$f = 4x_{11} + 3x_{12} + 4x_{13} + 5x_{21} + x_{22} + 2x_{23} + 3x_{31} + 4x_{32} + 7x_{33} \quad (1.1.3)$$

Masalalarning shartidan ya'ni jadvaldan ko'rinadiki, $x_{11}, x_{12}, x_{13}, x_{14}, x_{21}, x_{22}, x_{23}, x_{24}, x_{31}, x_{32}, x_{33}, x_{34}$ miqdorlar orasida quyidagicha bog'lanish bo'lishi ravshan:

$$\left. \begin{aligned} x_{11} + x_{12} + x_{13} + x_{14} &= 80 \\ x_{21} + x_{22} + x_{23} + x_{24} &= 25 \\ x_{31} + x_{32} + x_{33} + x_{34} &= 35 \\ x_{11} + x_{21} + x_{31} &= 30 \\ x_{12} + x_{22} + x_{32} &= 10 \\ x_{13} + x_{23} + x_{33} &= 90 \\ x_{14} + x_{24} + x_{34} &= 10 \end{aligned} \right\} \quad (1.1.4)$$

x_{ij} ($i=1; 2; 3, j=1; 2; 3; 4$;) larning hammasi bir paytda nol bo'lishi mumkin emas, aks holda bironta ham do'konga shakar olib borilmagan bo'lar edi. Shuning uchun $x_{ij} \geq 0$ deb olamiz.

Qo'yilgan masalaning matematik modeli quyidagicha: (1.1.4) algebraik tenglamalar sistemasining shunday manfiy bo'lmagan yechimlarini topaylikki, natijada (1.1.3) maqsad funktsiya eng kichik qiymatga ega bo'lsin. Bu esa transportlar uchun ketgan xarajatning eng kam bo'lishini ta'minlaydi. Bu masalaning yechimini keyinchalik shimoliy-g'arbiy burchak usuli va eng kam xarajatlar usuli bilan hosil qilamiz.

§2. Transport masalasining dastlabki rejasini topish usullari.

2.1. «Shimoliy-gʻarbiy burchak» usuli.

Transport masalasining yechimini yaʼni optimal rejasini topish uchun dastlab biror reja topiladi. Bunday rejani topish usullaridan biri «Shimoliy-gʻarbiy burchak» qoidasidir. Bu qoida quyidagicha ifodalanadi.

Aytaylik, transport masalasi jadval koʻrinishda berilgan boʻlsin (1-jadval).

Taʼminotchi	Isteʼmolchi				Ishlab chiqarish quvvati
	B_1	B_2		B_n	
A_1	c_{11} x_{11}	c_{12} x_{12}	...	c_{1n} x_{1n}	a_1
A_2	c_{21} x_{21}	c_{22} x_{22}	...	c_{2n} x_{2n}	a_2
...	...	...	...	...	...
A_m	c_{m1} x_{m1}	c_{m2} x_{m2}	...	c_{mn} x_{nm}	a_m
Talab hajmi	b_1	b_2	...	b_n	

Maqsad A_i va B_j lar ($i = \overline{1, m}; \quad j = \overline{1, n}$) kesishuvdagi kataklardagi mahsulot miqdorini aniqlashdan iborat. Kataklarni toʻldirishni jadvalning shimoliy-gʻarbiy burchagidan, yaʼni A_i va B_j kesishgan katakdan boshlaymiz. Bu katakka mos keluvchi mahsulot (yuk) miqdori a_1 ga teng boʻlib, talab esa b_1 miqdordan iborat. Bu katakka a_1 va b_1 dan qaysi biri kichik boʻlsa, shuni joylashtiramiz, yaʼni

$$x_{11} = \min\{a_1; b_1\}$$

Agar $a_1 < b_1$ boʻlsa, demak, katakka a_1 , agar $b_1 < a_1$ boʻlsa esa katakka b_1 ni yozamiz. Ravshanki, $a_1 < b_1$ boʻlgan holda, 1- satrdagi boshqa barcha kataklarga 0 miqdoridagi yuk mos keladi, chunki, mavjud yukning barchasi b_1 isteʼmolchiga yuborildi. Agar $b_1 < a_1$ boʻlsa, 1- ustundagi barcha kataklarga 0 miqdor mos keladi, chunki mavjud talab 1-katakdayoq toʻla qondirildi.

Shunday qilib, birinchi qadamda 1- satr yoki 1- ustun kataklarining barchasi toʻldiriladi.

Ikkinchi qadam sifatida 2-katakni toʻldirishga oʻtamiz. Ravshanki, agar $a_1 < b_1$ boʻlsa, bu katak A_2 va B_1 kesishgan katak boʻladi. Agar $b_1 < a_1$ boʻlsa, bu katak A_1 va B_2 kesishgan katak boʻladi. Bu katakni ham avvalgi katak singari toʻldiramiz. Biroq, bu katakni toʻldirishda 1-katakka tushirilgan yukni inobatga olamiz, yaʼni, agar

$a_1 < b_1$ boʻlsa, 1-ustundagi 2- katakka

$$x_{21} = \min\{a_2; b_1 - a_1\} \quad \text{ni joylashtiramiz}$$

Agar $b_1 < a_1$ boʻlsa, 1- yoʻldagi 2- katakka

$x_{12} = \min\{a_1 - b_1; b_2\}$ ni joylashtiramiz va bu jarayon barcha katak to'lguncha davom ettiriladi.

2.1.1.-Misol. Yuqoridagi shakar masalasini ko'raylik.

$\begin{matrix} b_i \\ a_i \end{matrix}$	30	10	90	10
80	4 30	3 10	4 40	0 0
25	5 0	1 0	2 25	0 0
35	3 0	4 0	7 25	0 10

1-katakka $x_{11} = \min\{80; 30\} = 30$ ni yozamiz. Shundan so'ng, birinchi ustundagi barcha kataklarga 0 yozamiz. So'ng A_1 punktda $80 - 30 = 50$ birlik mahsulot qolganini inobatga olib, keyingi katakni, ya'ni 1-yo'l, 2-ustundagi katakni to'ldiramiz:

$$X_{12} = \min\{50; 10\} = 10$$

Ikkinchi ustunning ham qolgan kataklariga 0 lar yozamiz, kataklarni shu usulda to'ldiramiz.

$$X_{13} = \min\{40; 90\} = 40$$

$$X_{23} = \min\{25; 50\} = 25$$

$$X_{33} = \min\{35; 25\} = 25$$

Shunday qilib, quyidagi tayanch rejaga ega bo'ldik:

$$X = \{30; 10; 40; 0; 0; 0; 25; 0; 0; 0; 25; 10\}.$$

Aniqlangan tayanch rejaga mos keluvchi xarajat

$$f = 30 \cdot 4 + 10 \cdot 3 + 40 \cdot 4 + 25 \cdot 2 + 25 \cdot 7 = 535 \text{ so'm bo'lar ekan.}$$

2.1.2-misol. (Guruch masalasi). Transport masalasidagi guruchlarni do'konlarga etkazish masalasini ko'raylik.

$\begin{matrix} b_i \\ a_i \end{matrix}$	20	35	15
40	5 20	6 20	8 0
30	7 0	3 15	11 15

$$x_{11} = \min(40; 20) = 20$$

$$x_{12} = \min(20; 35) = 20$$

$$x_{22} = \min(30; 15) = 15$$

$$x_{23} = \min(15; 15) = 15$$

Transport uchun ketgan eng kam xarajat

$$f = 5 \cdot 20 + 6 \cdot 20 + 3 \cdot 15 + 11 \cdot 15 = 430 \text{ so'm}$$

2.2. Eng kam xarajatlar usuli.

Shimoliy-g'arbiy usul bilan tayanch rejani topish jarayonida tashish xarajatlari C_{ij} larni e'tiborga olmadik. Shu sababdan topilgan reja optimal rejadan ancha uzoq bo'lishi mumkin. Bu esa optimal rejani topishni qiyinlashtiradi.

Agar tayanch rejani qurish jarayonida C_{ij} larni hisobga olsak, optimal rejaga ancha yaqin bo'lgan rejaga ega bo'lamiz. Shu maqsadda x_{ij} larni topishni eng kichik C_{ij} joylashgan katakdan boshlaymiz. Deylik, $C_{i_0j_0}$ eng kichik tarif bo'lsin. U xolda, agar $a_{i_0} < b_{j_0}$ bo'lsa, $x_{i_0j_0} = a_{i_0}$ bo'ladi, agar $a_{i_0} > b_{j_0}$ bo'lsa, $x_{i_0j_0} = b_{j_0}$ bo'ladi.

Shu katakka mos bo'lgan ustun yoki satrning boshqa kataklariga 0 lar yoziladi. So'ngra, navbatdagi kichik C_{ij} ga o'tamiz. Bu holda ham a_i , b_j larning miqdori o'zgarganligini e'tiborga olamiz. Barcha kataklarni shu usulda to'ldirsak, hosil bo'lgan nuqta tayanch reja bo'ladi.

2.2.1-Misol. Shakar masalasini ko'raylik.

$\begin{matrix} b_i \\ a_i \end{matrix}$	30	10	90	10
80	4 0	3 0	4 75	0 5
25	5 0	1 10	2 15	0 0
35	3 30	4 0	7 0	0 5

Eng kichik $s_{ij} = s_{22} = 1$ demak, mos katakka $x_{22} = 10$ joylashtiramiz. Demak, 2-ustunning boshqa kataklariga 0 yozamiz. Navbatdagi kichik tarif $s_{23} = 2$ dan iborat. Bu katakka 15 yozamiz. Ikkinchi yo'ning qolgan kataklariga 0 yozamiz, chunki ikkinchi omborda shakar qolmadi. Navbatdagi kichik tarif, $s_{31} = 3$, bu katakka 30 yozamiz va birinchi ustunning qolgan kataklariga 0 yozamiz. Navbatdagi kichik tarif $s_{13} = 4$, bu katakka 75 yozamiz va shu ustunning qolgan kataklariga 0 yozamiz va nihoyat, $s_{14} = 5$, $s_{34} = 5$ bo'ladi. Shunday qilib, optimal reja

$$x = (0; 0; 75; 5; 0; 10; 15; 0; 30; 0; 0; 5)$$

bo'lib, eng kam ketgan xarajat

$$f = 4 \cdot 75 + 10 \cdot 1 + 15 \cdot 2 + 30 \cdot 3 = 430$$

co'm bo'ladi.

2.2.2-misol. Yuqoridagi guruch masalasini ko'raylik.

Bu misolni ham 1-misol kabi eng kam xarajatlar usuli bilan echsak, quyidagi jadvaldagi yechimini olamiz:

$\begin{matrix} b_i \\ a_i \end{matrix}$	20	35	15
--	----	----	----

40	520	65	815
30	70	330	110

Demak, optimal yechim $x=(20; 5; 15; 0; 30; 0;)$ bo`lib eng kam ketgan xarajat
 $f = 5 \cdot 20 + 5 \cdot 6 + 8 \cdot 15 + 3 \cdot 30 = 340$

so`m bo`lar ekan.

echilgan masalalardan ko`rinadiki, eng kam xarajatlar usuli shimoliy-g`arbiy burchak usulidan ancha afzal ekan.

§3. Transport masalasini yechishning potentsiallar usuli.

Biror usul bilan dastlabki reja aniqlab olingandan so`ng, optimal rejani topish masalasi vujudga keladi. Uni aniqlash uchun jadvaldagi har bir ta`minotchiga u_i ($i=\overline{1,m}$) potentsialni, har bir iste`molchiga  $v_j$ , ( $j=\overline{1,n}$ ) potentsialni mos qo`yamiz. Bu kattaliklarni aniqlash uchun band kataklardan foydalanamiz. Har bir band katak uchun u_i va v_j larni shunday aniqlaymizki,

$$u_1 + v_1 = c_{ij} \quad (3.1)$$

bo`lsin. Bu erda c_{ij} mos tarif narxi. Transport masalasidagi matritsa rangi

$$r(A)=m+n-1$$

bo`lganligi uchun, band kataklar soni  $m+n-1$  ta bo`lib, noma`lum potentsiallar soni esa  $n+m$  ta bo`ladi. Demak, noma`lumlarni aniqlash uchun  $m+n-1$  ta tenglamani yechishga to`g`ri keladi. Barcha noma`lumlarni aniqlash uchun noma`lumlarning ixtiyoriy bittasini 0 deb olib so`ngra qolganlarini topamiz. So`ngra, barcha bo`sh kataklar uchun yordamchi tarifni, ya`ni

$$c_{ke}^1 = u_k + v_e \text{ (soxta tarif)}$$


ni aniqlaymiz. Bu erda k, e -bo`sh katak indeksleri. Undan keyin, har bir bo`sh katak uchun tariflar farqini qaraymiz:

$$S_{ke} = c_{ke} - c_{ke}^1 = c_{ke} - (u_k + v_e)$$

Agar barcha S_{ke} lar manfiy bo`lmasa, qaralayotgan reja optimal bo`ladi.

Agar biror S_{ke} manfiy bo`lsa, y rejaning optimal emasligini anglatadi.

Ma`lumki, har qanday transport masalasi optimal rejaga ega. Shu sababli dastlabki rejani «yaxshilash» algoritmini bayon etamiz. Shu maqsadda barcha manfiy  $S_{ke}$  lar ichidan eng kichigini tanlaymiz va unga mos katakni belgilab (masalan \* belgisi qo`yib), uni qutb deb ataymiz va uchlari band kataklarda yotuvchi tsikl (yopiq siniq chiziq) quramiz (chizmaga qarang)



Qutbga «+» ishorasini qo`yib, boshqa burchaklardagi kataklarga navbat bilan «+» va «-» ishorasini qo`yib chiqamiz. So`ngra barcha «-» ishorali kataklar ichidagi

yuklardan eng kichik miqdorni aniqlab, o'sha miqdordagi yukni barcha «-» kataklarda olib, «+» ishorali kataklardagi yuklarga qo'shamiz.

Natijada yangi reja paydo bo'ladi. Hosil bo'lgan rejani dastlabki reja sifatida qarab, barcha tadbirlarni takrorlaymiz va yangi rejani ham optimallikka tekshiramiz. Agar optimallik sharti bajarilmasa, bu jarayonni yana takrorlaymiz. Natijada, chekli sondagi qadamdan (interatsiyadan) so'ng optimal yechim topiladi.

3.1. Ba'zi transport masalalarni potentsiallar usuli bilan yechish.

3.1.1.-Misol. Yuqoridagi shimoliy-g'arbiy burchak usuli bilan echilgan guruch masalasining yechimini optimallikka potentsiallar usuli bilan tekshiraylik.

		v_1	v_2	v_3
		b_j		
		a_i		
u_1	40	20	5	8
u_2	30	0	7	11

Band kataklar uchun potentsiallarni aniqlaymiz.

$$\left. \begin{array}{l} u_1 + v_1 = 5 \\ u_1 + v_2 = 6 \\ u_2 + v_2 = 3 \\ u_2 + v_3 = 11 \end{array} \right\} \Rightarrow u_1 = 0$$

$$\begin{array}{l} u_1 = 0 \\ u_2 = -3 \\ v_1 = 5 \\ v_2 = 6 \\ v_3 = 14 \end{array}$$

Endi barcha bo'sh kataklar uchun yordamchi tarifni (soxta tarifni) $c_{ke}^1 = u_k + v_e$ tenglik orqali aniqlaymiz:

$$c_{13}^1 = u_1 + v_3 = 0 + 14 = 14$$

$$c_{21}^1 = u_2 + v_1 = -3 + 5 = 2$$

Endi har bir bo'sh kataklar uchun tariflar farqini aniqlaylik

$$\begin{cases} S_{13} = C_{13} - C_{13}^1 = 8 - 14 = -6 \\ S_{21} = C_{21} - C_{21}^1 = 7 - 2 = 5 \end{cases}$$

bularning ichida manfiy bor, demak yechim optimal emas. Bu yechimni optimallashtirish uchun quyidagicha ish qilamiz:

Endi barcha manfiy S_{ke} larning ichida eng kichigini belgilab, uni qutb deb, ataymiz va qutbni «+» deb, keyingi uchini «-» deb, ularni navbat bilan almashtirib, uchlari band kataklarda yotuvchi tsikl yopiq siniq chiziq quramiz (chizmadagi kabi).

Endi barcha «-» ishorali kataklar ichidagi yuklardan eng kichik miqdorini aniqlab, o'sha miqdordagi yukni barchak «-» kataklardan olib, «+» ishorali kataklardagi yuklarga qo'shamiz.

Natijada yangi reja paydo bo'ladi $\begin{pmatrix} 20; & 5; & 15 \\ 0; & 30; & 0 \end{pmatrix}$. Hosil bo'lgan rejani dastlabki reja sifatida qarab, barcha yuqoridagi tadbirlarni takrorlaymiz va optimallikka tekshiramiz. Agar optimallik sharti bajarilmasa, bu jarayonni yana takrorlaymiz va hokazo.

		v_1	v_2	v_3
		b_j		
a_i		20	35	15
u_1	40	5 20	6 5	8 15
u_2	30	7 0	3 30	11 0

Band kataklar uchun potentsiallarni aniqlaymiz.

$$\left. \begin{aligned} u_1 + v_1 &= 5 \\ u_1 + v_2 &= 6 \\ u_1 + v_3 &= 8 \\ u_2 + v_2 &= 3 \end{aligned} \right\} \Rightarrow u_1 = 0 \text{ desak, } \begin{aligned} u_1 &= 0 \\ v_1 &= 5 \\ v_2 &= 6 \\ v_3 &= 8 \\ u_2 &= -6 + 3 = -3 \end{aligned}$$

Shunday qilib, band kataklarning potentsiallari:

$$u_1 = 0; v_1 = 5$$

$$u_2 = -3; v_2 = 6$$

$$v_3 = 8$$

Endi barcha bo'sh kataklar uchun yordamchi tarifni (soxta tarifni) $C_{ke}^1 = U_k + V_e$ tenglik orqali aniqlaymiz.

$$c_{21}^1 = u_2 + v_1 = -3 + 5 = 2$$

$$c_{23}^1 = u_2 + v_3 = -3 + 8 = 5$$

Endi har bir bo`sh katak uchun tariflar farqini aniqlaymiz.

$$s_{ke} = c_{ke} - c_{ke}^1 = c_{ke} - (u_k + v_e)$$

$$\left. \begin{array}{l} S_{21} = 7 - 2 = 5 \\ S_{23} = 11 - 5 = 6 \end{array} \right\} \Rightarrow$$

bularning ichida manfiy yo`q, demak yechim optimal.

Demak, optimal reja

$$X = \{20; 5; 15; 0; 30; 0\} \quad \text{ёку} \quad X = \begin{bmatrix} 20 & 5 & 15 \\ 0 & 30 & 0 \end{bmatrix}$$

$$f = 5 \cdot 20 + 5 \cdot 6 + 30 \cdot 3 = 100 + 30 + 90 + 120 = 340 \quad \text{so`m ketgan harajat.}$$

2-misol.

		v_1	v_2	v_3	v_4
	a_i	80	60	40	30
u_1	90	2 30	1 60	3 0	2 0
u_2	70	$\oplus$ 40	3 0	3 0	$\ominus$ 30
u_3	50	$\ominus$ 10	3 0	2 40	$\oplus$ 0

$$X = \begin{bmatrix} 30 & 60 & 0 & 0 \\ 40 & 0 & 0 & 30 \\ 10 & 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}$$

Band kataklar uchun potentsiallarni aniqlaymiz.

$$\begin{array}{ll} u_1 = 0 & v_1 = 2 \\ u_2 = 0 & v_2 = 1 \\ u_3 = 1 & v_3 = 1 \\ & v_4 = 1 \end{array}$$

$$\left. \begin{array}{l} u_1 + v_1 = 2 \\ u_1 + v_2 = 1 \\ u_2 + v_1 = 2 \\ u_2 + v_4 = 1 \\ u_3 + v_1 = 3 \\ u_3 + v_3 = 2 \end{array} \right\} \Rightarrow u_1=0 \text{ desak,}$$

$$\begin{array}{l} u_1 = 0 \\ v_1 = 2; \quad v_2 = 1 \\ u_2 = 2 - v_1 = 2 - 2 = 0 \\ v_4 = 1 - u_2 = 1 \\ u_3 = 3 - v_1 = 3 - 2 = 1 \\ v_3 = 2 - u_3 = 2 - 1 = 1 \end{array}$$

Endi bo`sh kataklar uchun yordamchi narxlarni (soxta narxlarni) hisoblaymiz.

$$c_{13}^1 = u_1 + v_3 = 0 + 1 = 1$$

$$c_{14}^1 = u_1 + v_4 = 1$$

$$c_{22}^1 = u_2 + v_2 = 0 + 1 = 1$$

$$c_{23}^1 = u_2 + v_3 = 1$$

$$c_{32}^1 = u_3 + v_2 = 1 + 1 = 2$$

$$c_{34}^1 = u_3 + v_4 = 1 + 1 = 2$$

Endi har bir bo`sh katak uchun tariflar farqini xisoblaymiz .

$$\left. \begin{array}{l} s_{13} = 3 - 1 = 2 \\ s_{14} = 2 - 1 = 1 \\ s_{22} = 3 - 1 = 2 \\ s_{23} = 3 - 1 = 2 \\ s_{32} = 3 - 2 = 1 \\ s_{34} = 1 - 2 = -1 \end{array} \right|$$

$S_{34} = -1$ manfiy chiqdi, demak reja optimal emas. Uni optimallashtirish kerak. Shuning uchun S_{34} ni ya`ni (3:4) ni qutb boshi deb yopiq tsikl quramiz.

$\begin{array}{c} b_i \\ \backslash \\ a_i \end{array}$	80	60	40	30
90	$\begin{array}{c} 2 \\ 30 \end{array}$	$\begin{array}{c} 1 \\ 60 \end{array}$	$\begin{array}{c} 3 \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{c} 2 \\ 0 \end{array}$
70	$\begin{array}{c} 2 \\ 50 \end{array}$	$\begin{array}{c} 3 \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{c} 3 \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{c} 1 \\ 20 \end{array}$
30	$\begin{array}{c} 3 \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{c} 3 \\ 0 \end{array}$	$\begin{array}{c} 2 \\ 40 \end{array}$	$\begin{array}{c} 1 \\ 10 \end{array}$

$$X = \begin{bmatrix} 30 & 60 & 0 & 0 \\ 50 & 0 & 0 & 20 \\ 0 & 0 & 40 & 10 \end{bmatrix}$$

Yana band kataklar uchun potentsiallarni tekshiramiz.

$$\begin{array}{l|l|l|l} u_1 + v_1 = 2 & & & c_{13}^1 = u_1 + v_3 = 0 + 2 = 2 \\ u_1 + v_2 = 1 & & v_1 = 2 & c_{14}^1 = 0 + 1 = 1 \\ u_2 + v_1 = 2 & u_1 = 0; & v_2 = 1 & c_{22}^1 = 0 + 1 = 1 \\ u_2 + v_4 = 1 & \Rightarrow u_2 = 0; & v_3 = 2 & c_{23}^1 = 0 + 2 = 2 \\ u_3 + v_3 = 2 & u_3 = 0; & v_4 = 1 & c_{31}^1 = 0 + 2 = 2 \\ u_3 + v_4 = 1 & & & c_{32}^1 = 0 + 1 = 1 \end{array} \quad \begin{array}{l} s_{13} = 3 - 2 = 1 \\ s_{14} = 2 - 1 = 1 \\ s_{22} = 3 - 1 = 2 \\ s_{23} = 3 - 2 = 1 \\ s_{31} = 3 - 2 = 1 \\ s_{32} = 3 - 1 = 2 \end{array}$$

manfiy yo`q, demak reja optimal (yechim optimal)

$$X = \begin{bmatrix} 30 & 60 & 0 & 0 \\ 50 & 0 & 0 & 20 \\ 0 & 0 & 40 & 10 \end{bmatrix} \text{ bo`lar ekan.}$$

Demak transport uchun ketgan xarajat

$$f = 60 + 60 + 100 + 20 + 80 + 10 = 330 \text{ so`m bo`ladi.}$$

§4. Transport masalasini yechishning Venger usuli.

Venger usuli, transport masalalarini yechishning juda keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Dastlab, venger usulining asosiy g'oyalarini transport masalasining yakka holda hisoblangan, tanlash masalasi yoki masalani yechish misolida ko'rib chiqamiz, keyin bu usulni hohlagan transport masalasi uchun umumlashtiramiz.

4.1. Tanlash masalasi uchun Venger usuli.

Masalaning qo'yilishi: $A_1, A_2, \dots, A_n$ n turli ishlar va har biri hohlagan ishini bajara oladigan mexanizmlar bor deylik. A_1 ishini bajarishdagi B_1 mexanizmining unimdorligini $C_{ij} (i = 1, 2, \dots, n; j = 1, 2, \dots, n)$ bilan belgilaymiz. Mexanizmlarni ishlarga shunday qilib joylashtirish kerak, ularni ishlatishdan (foydalanadigan) umumiy effekt maksimal bo'lishi kerak. Bunday masala tanlash masalasi deb ataladi.

Tanlash masalasi quydagi ko'rinishda yoziladi

$$C = \begin{bmatrix} c_{11} & c_{12} & \cdot & \cdot & \cdot & c_{1n} \\ c_{21} & c_{22} & \cdot & \cdot & \cdot & c_{2n} \\ \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot & \cdot \\ c_{n1} & c_{n2} & \cdot & \cdot & \cdot & c_{nn} \end{bmatrix} \quad \text{matritsadan, } c_{1j_1}, c_{2j_2}, \dots, c_{nj_n} \text{ elementlarning}$$

shunday ketma-ketligini tanlash kerak, bunda $\sum_{k=1}^n C_{ki_k}$ summasi maksimal bo'lishi kerak va bunda har bir C qator va ustunlardan faqat bir element tanlangan bo'lishi kerak.

Quyidagi tushinchalarni kiritamiz:

1. C matritsaning $Z_1, Z_2, \dots, Z_k$ nulinchi elementlarni mustaqil nollar deb ataladi, agar hoxlagan $1 \leq i \leq k$ uchun, ularning kesilishida Z_1 elementi joylashgan qator va ustun boshqa nollarga ega bo'lmasa.
2. C va D ikki to'g'ri burchakli matritsalar ekvivalentli ($C \sim D$) deb ataladi, agar barcha i, j uchun $C_{ij} = d_j + \alpha_i + \beta_i$ bo'lsa. Ekvivalent matritsalar bilan aniqlanadigan tanlash masalalari ekvivalentli hisoblanadi.
3. Ajratilgan qator yoki ustunda joylashgan elementlar ajratilgan elementlar deb ataladi.

4.2. Venger usuli algoritmini ta'riflash.

Algoritm, oldingi bosqichdan va $(n-2)$ ko'p bo'lmagan ketma-ket o'tkaziladigan iteratsiyalardan iborat. Har bir iteratsiya, mustaqil nollarning maksimal sonlarini tanlash va o'tkazilgan avvalgi iteratsiya natijasida olingan matritsaning ekvivalentl o'zgarishlari bilan bog'liq. Iteratsiyaning yakunlovchi natijasi mustaqil nollar sonining birga ko'payishi bo'ladi.

Mustaqil nollar sonining miqdori n -ga teng bo'lganda tanlash masalasi (muammosi) echilgan hisoblanadi, optimal variant esa oxirgi matritsada mustaqil nollar pozitsiyasi bilan aniqlanadi.

Oldingi bosqich. j ustundan maksimal element qidiriladi va bu ustunning barcha elementlari ketma-ket maksimaldan olinadi. Bu operatsiya $C(1 \leq j \leq n)$ matritsaning barcha ustunlariga ishlanadi. Natijada, har bir ustunda kamida bitta noldan bor, teskari emas (neotritsatel'nyy) elementlarga ega matritsa faydo bo'ladi. Olingan matritsaning j -chi qatorini ko'rib chiqamiz va uning har bir elementidan shu qatorning minimal elementini olib chiqamiz. i ni 1-dan n -gacha o'zgartib teskari emas elementlarga ega C_0 matritsani olamiz, uning har bir qator va ustunida kamida bitta nol mavjud. Birinchi ustundagi nolni yulduzcha bilan belgilaymiz.

Keyin ikkinchi ustunni ko'rib chiqamiz, agar yulduzchali nol yo'q qatorda nol bor bo'lsa, unda uni yulduzcha bilan belgilaymiz.

C_0 matritsaning barcha ustunlarini birma-bir ko'rib chiqamiz. C_0 matritsaning yulduzcha bilan belgilangan nollari tuzilishi bo'yicha mustaqil hisoblanadi. Shu bilan oldingi bosqich yakunlanadi.

$(k+1)$ – li iteratsiya. k – li matritsa o'tkazilgan va natijada C_k matritsa olingan deylik. Agar C_k matritsada yulduzchali nollar soni n bo'lsa, unda yechish jarayoni yakunlanadi. Agar yulduzchali nollar soni n – dan kam bo'lsa, unda $(k+1)$ – li iteratsiyaga o'tamiz.

Har bir iteratsiya birinchi bosqichdan boshlanib ikkinchisi bilan tamomlanadi. Ularning orasida bir necha juft bosqich o'tkazilishi mumkin: uchunchi – birinchi. “+” belgili iteratsiya boshlanishdan oldin, yulduzchali nollar bor C_k matritsaning ustunlari belgilanadi.

Birinchi bosqich. C_k matritsaning belgilanmagan ustunlari ko'rib chiqiladi. Agar ularning orasida (ichida) nolli element bo'lmasa, unda uchunchi bosqichga o'tiladi.

Agar C_k matritsaning belgilanmagan noli topilsa, unda ushbu ikki matritsaning biri bo'lishi mumkin:

- 1) Belgilanmagan nolli qator, yulduzchali nolga xam ega,
- 2) Bu qator yulduzchali nolga ega emas.

Birinchi holatda belgilanmagan nollar shtrix bilan belgilanadi va u mavjud qator uning o'ng tarafidan “+” belgisi qo'yib belgilanadi. Keyin yulduzchali noli bor berilgan qatorning kesilishgan ustuni ustidan aylana qilib chizib «+» belgisi yo'q qilinadi.

Keyin bu ustun ko`rib chiqiladi, unda yulduzcha bilan belgilanmagan, ajratilmagan nol (nollarni) topib uni shtrix bilan belgilaydi va shunday noli bor qatorni (qatorlarni) belgilaydi. Keyin, bu qator (qatorlar), yulduzchali nolni topish uchun qaytadan ko`rib chiqiladi.

Bu jarayonning oxiri belgili kadamlarning sonida quyidagilarning biri bilan tugallanadi:

- C_k matritsaning barcha nollari belgilangan, demak, belgilangan qator va ustunlarda joylashgan. Bunda uchinchi bosqichga utiladi.
- yulduzchali noli yo`q qatorda, belgilanmagan nol mavjud.

Shunda, soni bo`yicha oxirgi nolni shtrix bilan belgilab, ikkinchi bosqichga o`tiladi.

Ikkinchi holatda belgilanmagan nolni shtrix bilan belgilab, ikkinchi bosqichga o`tiladi.

Ikkinchi bosqich. C_k matritsaning elementlaridan quyidagi zanjir tuziladi:

Shtrixlangan oldingi nol, birinchi bilan bir ustunda joylashgan yulduzchali nol, avvalgi yulduzchali nol bilan bir qatorda joylashgan shtrixli nol va h.k. Shunday qilib, zanjir ustun bo`ylab  $0'$  dan  $0^*$  ga qator bo`ylab 0^* dan $0'$ ga harakatlanishdan paydo bo`ladi.

Berilgan zanjirni tuzish algoritmi bir qiymatli ekanligini isbotlashga bo`ladi. Bunda zanjir hamma vaqtda shtrixli noldan boshlanib shuning bilan tamomlanadi. Keyin toq elementlar ( $0^*$ ) oldinda ularni yo`q qilib, toq emas ($0'$) o`rinlarda turgan zanjir elementlari ustiga yulduzcha qo`yamiz. Keyin, C_k matritsasi elementlarindagi (elementlari ustidagi) shtrixlarni va + belgilarni yo`q qilamiz. Bunda mustaqil nollar miqdori birga ko`payadi $(k+1)$ – li iteratsiya tamomlanadi.

Uchunchi bosqich. Bu bosqichga birinchidan so`ng o`tiladi, agar C_k matritsaning barcha nollari belgilangan bo`lsa, belgilangan qator va ustunlarda joylashgan bo`lsa. Bunday holda C_k matritsaning belgilanmagan elementlari orasidan (ichidan) minimalini tanlab olinadi va uni $h>0$ bilan belgilaydi. Keyin ajratilmagan qatorlarda joylashgan C_k matritsa elementlaridan h olib tashlanadi va uni belgilangan qatorda joylashgan barcha elementlarga qo`shadi.

C_k ga ekvivalent $C_k^{(1)}$ yangi matritsa olinadi.

$C_k^{(1)}$ matritsaning belgilanmagan elementlari orasida yangi nollar (ta`rif bo`yicha) paydo bo`lganidan birinchi bosqichga o`tiladi, C_k matritsa o`rniga  $C_k^{(1)}$  matritsa qaraladi. Birinchi bosqichni yakunlab, yoki ikkinchi bosqichga o`tiladi, yoki kaytadan uchinchi bosqichga o`tiladi, agar  $C_k^{(1)}$  matritsaning barcha nollari belgilanmagan bo`lsa.

Birinchi holatda ikkinchi bosqichni o`tkazishdan keyin iteratsiya tugallanadi, ikkinchisida – uchunchi bosqichni o`tkizgandan keyin $C_k^{(2)} \sim C_k^{(1)} \sim C_k$ matritsasi olinadi. $C_k^{(2)}$ matritsada belgilangan nollar bo`ladi, va birinchi bosqichdan boshlab operatsiyaning barcha ketma-ketligi qaytarilishi kerak. Oxirgi takrorlanish sonidan

keyin, keyingi birinchi bosqich, ikkinchi bosqichga o'tishi bilan tamomlanadi va mustaqil nollar soni birga ko'payadi, $(k+1)$ – chi iteratsiya tamomlanadi.

Masalani yechishda quyidagi belgilardan foydalanamiz: toq qilinishi kerak bo'lgan + belgisini, aylana qilib chizamiz. Ikkinchi bosqichdagi zanjirni strelkalar bilan ko'rsatamiz.

Oldingi bosqich. C matritsaning birinchi ustunining maksimal elementi 4 ga teng. Shuning uchun S matritsaning birinchi ustunni olish 4 dan oldingi matritsaning birinchi ustunning elementlarini olish kerak.

Ikkinchi, uchunchi, to'rtinchi va beshinchi ustunlarni olish uchun shu ustunning elementlarini 5, 3, 2 va 3 dan olish kerak. C' matritsani olamiz. C' matritsaning ham bir qatorida nol bo'lganligidan $C' = C_0$ bo'ladi. C_0 mustaqil nollarni topamiz va ularni yulduzcha bilan belgilaymiz. Natijada ikki mustaqil nolga ega bo'lamiz (olamiz) (birinchi va to'rtinchi ustunlarda). Ularni yulduzcha bilan belgilaymiz.

Birinchi iteratsiya. 0^* ga ega birinchi va to'rtinchi ustunlarga + belgisini qo'yib chiqamiz. C_0 matritsaning belgilanmagan nollarini ko'rib chiqamiz. Ikkinchi ustunda va ikkinchi qatorda joylashgan nolni shtrix bilan belgilaymiz. Bu qatorda 0^* bo'lganligidan, bu qatorni belgilash kerak bo'ladi (ikkinchi qatorning o'ng tarafiga + ni qo'yamiz) va shu bilan birga birinchi ustundagi + belgisini aylanaga olamiz (chizamiz).

Birinchi ustunning belgilanmagan nollariga o'tamiz. 0^* ga ega emas uchunchi qatordagi shu ustundagi nolni belgilaymiz. Demak bu holatda ikkinchi bosqichga o'tish zarur (kerak).

Ikkinchi bosqich. Tartib bo'yicha oxirgi $0'$ dan 0^* ga o'tamiz (yuramiz) (1-ustun 2-qator), keyin ikkinchi qatorda joylashgan 0^* dan, shu qatorda joylashgan $0'$ ga o'tamiz. $0'$ joylashgan ikkinchi ustunda 0^* bo'lmaganligidan zanjir paydo bo'lish jarayoni to'xtaydi. Bu zanjir ushbu elementlardan iborat: $0'_{31}$; 0^*_{21} ; $0'_{22}$. Ikkinchi bosqich ham shuning bilan birga barcha birinchi iteratsiyaning tamomlanishi uchun, shtrix bilan belgilangan nollarning ustiga yulduzcha qo'yamiz, yolg'iz toq element ustidagi yulduzchani va barcha belgilarni yo'q qilamiz.

Shunday qilib, birinchi iteratsiya natijasida mustaqil nollarning soni birga ko'payadi.

$$\begin{array}{c}
\text{Birinchi iteratsiya} \\
\text{1-bosqich, 2-bosqich}
\end{array}
\begin{array}{c}
\oplus \\
1 \quad 1 \quad 1 \quad 0^* \quad 2 \\
0^* \quad 0' \quad 0 \quad 1 \quad 0 \\
0' \quad 2 \quad 2 \quad 1 \quad 2 \\
1 \quad 4 \quad 1 \quad 0 \quad 1 \\
3 \quad 2 \quad 2 \quad 0 \quad 2
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
\rightarrow C_1 =
\end{array}
\begin{array}{c}
\text{Ikkinchi iteratsiya} \\
\text{1-bosqich, 3-bosqich.}
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \quad \oplus \\
1 \quad 1 \quad 1 \quad 0^* \quad 2 \\
0 \quad 0^* \quad 0' \quad 1 \quad 0 \\
0^* \quad 2 \quad 2 \quad 1 \quad 2 \\
1 \quad 4 \quad 1 \quad 0 \quad 1 \\
3 \quad 2 \quad 2 \quad 0 \quad 2
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
h=1
\end{array}$$

$$\begin{array}{c}
\text{Ikkinchi iteratsiya} \\
\text{Birinchi bosqich} \quad \text{Ikkinchi bosqich}
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \quad \oplus \\
1 \quad 0 \quad 0 \quad 0^* \quad 1 \\
1 \quad 0^* \quad 0' \quad 2 \quad 0 \\
0^* \quad 1 \quad 1 \quad 1 \quad 1 \\
1 \quad 3 \quad 0 \quad 0 \quad 0 \\
3 \quad 1 \quad 1 \quad 0' \quad 1
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
\rightarrow C_2 =
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
1 \quad 0^* \quad 0 \quad 0 \quad 1 \\
1 \quad 0 \quad 0' \quad 2 \quad 0 \\
0^* \quad 1 \quad 1 \quad 1 \quad 1 \\
1 \quad 3 \quad 0 \quad 0 \quad 0 \\
3 \quad 1 \quad 1 \quad 0^* \quad 1
\end{array}$$

$$\begin{array}{c}
\text{Uchunchi iteratsiya} \\
\text{Birinchi bosqich} \quad \text{Ikkinchi bosqich}
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \quad \oplus \\
1 \quad 0^* \quad 0 \quad 0 \quad 1 \\
1 \quad 0 \quad 0^* \quad 2 \quad 0 \\
0^* \quad 1 \quad 1 \quad 1 \quad 1 \\
1 \quad 3 \quad 0 \quad 0 \quad 0' \\
3 \quad 1 \quad 1 \quad 0^* \quad 1
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
\rightarrow C_3 =
\end{array}
\begin{array}{c}
+ \\
1 \quad 0^* \quad 0 \quad 0 \quad 1 \\
1 \quad 0 \quad 0^* \quad 2 \quad 0 \\
0^* \quad 1 \quad 1 \quad 1 \quad 1 \\
1 \quad 3 \quad 0 \quad 0' \quad 0^* \\
3 \quad 1 \quad 1 \quad 0^* \quad 1
\end{array}$$

Keyingi iteratsiyalar shunga o'xshash o'tkazilganligidan, yuqorida natijalar qo'shimcha tushunchalarsiz keltirilgan.

Uchunchi iteratsiyadan so'ng mustaqil nollarning (0^*) miqdori S matritsaning o'lchamiga teng bo'lib qoldi va shuning uchun tanlash jarayoni yakunlandi. Matritsaning bu elementlari C_3 matritsaning mustaqil nollar (yulduzchali nollar) holatiga to'g'ri keladi.

Maqsadli funktsiya

$$L = C_{12} + C_{22} + C_{31} + C_{43} + C_{54} = 4 + 3 + 4 + 2 + 2 = 15$$

4.3. Venger usulini transport masalasini yechish uchun qo'llanish.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tanlash masalasi, foydalanish va ishlab chiqarishning bir doirasidagi transport masalasining bir turi hisoblanadi. Shuning uchun mahsus turdagi transport masalasini yechish uchun qo'llaniladigan Venger usuli transport masalasining [57,58] umumiy holatiga kengaytira bo'ladi. Transport masalasining quyidagi turini yechish kerak bo'lsin.

Topish kerak

$$\min \sum_i \sum_j C_{ij} X_{ij},$$

Venger usuliga asoslangan transport masalasini yechish algoritmi, iteratsiyaning oxirgi sonidan va oldingi bosqichidan iborat.

Oldingi bosqichning natijasida elementlari quyidagi shartlarga to'g'ri keladigan:

$$\sum_{j=1}^n x_{ij}^{(0)} \leq a_i, \quad i = 1, 2, \dots, m; \quad (4.3.1)$$

$$\sum_{i=1}^m x_{ij}^{(0)} \leq b_j, \quad j = 1, 2, \dots, n; \quad (4.3.2)$$

$X_0 = \|X_{ij}\|_{m,n}$, matritsasi tuzildi.

Agar (4.3.1) va (4.3.2) shartlarida qat'iy tengsizliklar olinsa, unda X_0 matritsa Transport masalasining yechimi bo'ladi. k -chi iteratsiya natijasida tuzilgan matritsani, $X_k = \|X_{ij}^{(k)}\|_{m,n}$ bilan belgilaymiz.

$$\sum_{i=1}^m a_i + \sum_{j=1}^n b_j - 2 \sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n x_{ij}^{(k)} = \Delta_k \quad (4.3.3)$$

Δ_k miqdor, X_k matritsa uchun umumiy bog'lanmasligi (*summarnaya nevyazka*) deb ataladi. U X_k matritsaning, Transport masalasining tayanch rejasiga yaqinligini xarakterlaydi. Iteratsiya, Δ_k o'lcham ba'zi bir k -qiymati nolga teng bo'lganga qadar o'tkaziladi.

Venger usuli algoritmining ta'rif. Oldingi bosqichi. $C = \|C\|$ transport xarajatlari matritsasining har bir ustunida minimal element topiladi va u ushbu ustunning barcha elementlaridan olinadi. C' matritsasi olinadi. Keyin C' matritsaning har bir qatoridan minimal element tanlanadi va uni shu qator elementlarining barchasidan olinib chiqiladi. Har bir qator va ustunda kamida bir noldan bo'lgan, barcha elementlari teskari emas, C_0 matritsaga keladi.

Keyin X_0 matritsani shunday tartibda quradi, nol emas elementlari C_0 matritsaning nollar jarayonida joylashgan bo'ladi.

ik_j - C_0 matritsaning j - ustunining k -chi noli joylashgan qator nomeri bo'lsin. Unda, X_0 matritsaning birinchi ustuninig elementlari rekurrent formula bo'yicha aniqlaydi.

$$x_{ij}^{(0)} = \begin{cases} 0; & i \neq i_{k_1}, \quad k = 1, 2, \dots, r \\ \min \left(a_i; \quad b_j - \sum_{\mu=1}^{i-1} x_{\mu j}^{(0)} \right); & i = i_{k_1} \end{cases} \quad (4.3.4)$$

C_0 matritsadagi nol emas elementlarga mos keluvchi, X_0 birinchi ustunning barcha elementlarini nollar bilan to'ldiradi, bu ustunning qolgan elementlarini shimoli-garbiy burchak usuli buyicha to'ldiradi.

X_0 matritsaning ustunlari $(j-1)$ – ga qadar to'ldirilgan deylik. Unda j – chi ustun elementlari quyidagi formulaga mos aniqlanadi.

$$x_{ij}^{(0)} = \begin{cases} 0; & i \neq i_{k_1}, \quad k = 1, 2, \dots, r \\ \min \left\{ a_i - \sum_{\mu=1}^{j-1} x_{i\mu}^{(0)}; \quad b_j - \sum_{\mu=1}^{i-1} x_{\mu j}^{(0)} \right\} & i = i_{k_1} \end{cases} \quad (4.3.5)$$

Keyin bog'lanmaslikni hisoblaydi

$$\Delta_0 = \sum_{i=1}^m a_i + \sum_{j=1}^n b_j - 2 \sum_{i=1}^m \sum_{j=i}^n x_{ij}^{(0)}. \quad (4.3.6)$$

Agar $\Delta_0 = 0$ bo'lsa, X_0 – Transport masalasining optimal yechimi.

Agar $\Delta_0 > 0$ bo'lsa, unda birinchi iteratsiyaga o'tamiz.

(k+1) – chi iteratsiya. Har bir iteratsiya uch bosqichdan iborat. Iteratsiya birinchi bosqichdan boshlanib, ikkinchi bilan yakunlanadi.

Umumiy holatda birinchi va ikkinchi bosqichlar o'rtasida birinchi va uchinchi bosqichlar bir nechta marta o'tkazilishi mumkin.

$\Delta_k > 0$ bo'lgan k iteratsiyalar o'tkazildi deylik. Bu holatda C_k va X_k matritsalaridan foydalanib, quyidagi $(k+1)$ iteratsiyani o'tkazish kerak. Iteratsiyani boshlashdan oldin ustunlar bo'yicha bog'lanmasliklar

$$\delta_j^{(k)} = b_i - \sum_{i=1}^m x_{ij}^{(k)} = 0$$

teng bo'lgan C_k matritsa ustunlarini “+” belgi bilan belgilanadi.

Birinchi bosqich. Agar C_k matritsaning barcha nolli elementlari belgilangan ustunda qolsa, unda uchinchi bosqichga o'tiladi. Aks holda, masalan, i –chi qator va j –chi ustunda joylashgan ixtiyoriy belgilanmagan C_k nol tanlanadi va i –chi qatorning bog'lanmaslik ulchami hisoblanadi.

$$\delta_j^{(k)} = a_i - \sum_{\mu=1}^n x_{i\mu}^{(k)}$$

Bunda ikki holatning biri bo'lishi mumkin.

$$1) \delta_j^{(k)} = 0; \quad 2) \delta_j^{(k)} > 0.$$

Birinchi holatda C_k ning i – chi qatorni uning o'ng tomonidan “+” belgisi bilan belgilaydi, nolga teng C_{ij} matritsa elementini, shtrix bilan belgilaydi.

Keyin, C_k matritsaning barcha belgilangan ustunlarini shu qator bo'yicha ko'rib chiqadi.

Agar C_k matritsaning μ – chi ustuni belgilangan bo'lsa va element $x_{i\mu}^{(k)} > 0$ bo'lsa, ustun ustidagi “+” belgisini olib tashlanadi, $C_{ij}^{(k)1}$ elementini yulduzcha bilan belgilaydi.

Keyin μ –ustun qaralib chiqiladi va undagi i – qatorda joylashgan uning nolnchi elementlari izlanadi. Agar shundaylari topilsa, ularni shtrix bilan belgilanadi.

Keyin, nollarni belgilash jarayoni huddi shunday davom etiladi va quyidagi ikki yakunning biri bilan tamomlanadi.

- 1) Bog'lanmaslik $\delta_i > 0$ bo'lgan C_k matritsaning belgilanmagan noli aniqlanadi. Bu holatda ikkinchi bosqichga o'tiladi.
- 2) C_k matritsaning barcha nollari belgilangan, bunda shtrix bilan belgilangan, har bir nol uchun bog'lanmaslik $\delta_i = 0$. Bunday holatda uchinchi bosqichga o'tamiz.

Ikkinchi holatda, nolni shtrix bilan belgilab, ikkinchi bosqichga o'tamiz.

Ikkinchi bosqich. Birinchidan keyin bo'ladi, agar $\delta_i > 0$ bo'lsa, yulduzcha va shtrixlar bilan belgilangan va so'ng X_{k+1} yangi matritsaga o'tadigan, C_k matritsalarining zanjirlarining tuzilishi nollardan tuzilgan bo'lsa.

$\lambda_1\mu_1$ pozitsiyasida joylashgan, C_k matritsaning belgilanmagan noli uchun, bog'lanmaslik $\delta_{\lambda_1} > 0$ shunday deylik. Ushbu elementdan boshlab, C_k matritsning belgilangan nollaridan, quydagi qoydalarga uxshash qilib, zanjir yasaladi.

C_k matritsaning μ_1 ustunida $O_{\lambda_2\mu_1}$ yulduzchali nol tanlanadi, λ_2 -chi qatorda $O_{\lambda_2\mu_2}$ shtrixli nolni tanlaymiz.

Keyingi, ustun bo'ylab shtrixli noldan yulduzchali nolga va qator bo'ylab yulduzchali noldan shtrixli nolga o'tish jarayoni iloji boricha takrorlana beradi. Zanjirni tuzish hamisha uxshash o'tkazilishini isbotlash mumkin, zanjir yopiq tsiklga ega emas va shtrixli nol bilan tamomlanadi. $O_{\lambda_1\mu_1} - O_{\lambda_2\mu_1} - O_{\lambda_2\mu_2} - \dots - O_{\lambda_s\mu_s}$ turdagi zanjir tuzilgandan keyin, X_k matritsadan X_{k+1} matritsaga qo'ydagi formula bo'yicha o'tiladi.

$$x_{ij}^{k+1} = \begin{cases} x_{ij}^{(k)}, & \text{агар } c_{ij}^k \text{ кириври емас занжири} \\ x_{ij}^{(k)} + \theta_k, & \text{агар } c_{ij}^k \text{ аник емас элемент занжир} \\ x_{ij}^{(k)} - \theta_k, & \text{агар } c_{ij}^k \text{ аник элемент занжир} \end{cases} \quad (4.3.7)$$

